



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



## SIFAT SO‘Z TURKUMIDA OBYEKTIV VA SUBYEKTIV BELGI- XUSUSIYATNING IFODALANISHI

**Jumaniyozova Charos Mahmudovna**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU 1-bosqich tayanch  
doktoranti*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada sifat so‘z turkumiga oid leksemalarning obyektiv va subyektiv belgi ifodalash xususiyatlari tahlil qilinadi. Obyektiv belgi bildiruvchi sifatlar narsa va hodisalarga xos haqiqiy, tekshirish, o‘lchash mumkin bo‘lgan jihatlarini ifodalshi bilan tavsiflanadi. Subyektiv belgi bildiruvchi sifatlar esa nutq egasining shaxsiy munosabati yoki idrokini bildirishi misollar orqali ko‘rsatib berilgan.*

**Kalit so‘zlar.** *Sifat, obyektiv belgi, subyektiv belgi, leksema, semantika.*

Inson nutqi obyektiv olamni tasvirlaydi. Bu jarayon, albatta, so‘zlar vositasida amalga oshiriladi. So‘zlovchi ya‘ni shaxs o‘z nutqida qanday so‘zlardan foydalanishi uning o‘ziga, nutq so‘zlanayotgan vaziyatga, va albatta, so‘zlovchining shu fikr bildirilayotgan voqea-hodisaga munosabati bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ma‘lumki, inson o‘z nutqida obyektiv olam nusxasini oddiy betaraf shaxs sifatida chizib chiqishi va qo‘shimcha ravishda obyektiv haqiqatga o‘zining shaxsiy munosabatini ham qo‘shib ifodalashi mumkin, shunga ko‘ra so‘zlovchining voqelikka nisbatan betaraf neytral va subyektiv munosabatiga ko‘ra ikki xil nutq shakllari – intellektual hamda intellektual-emotsional nutq tafovut qilinadi.<sup>37</sup>

Bundan kelib chiqadiki, so‘zlovchining voqelikka nisbatan obyektiv munosabati yoki subyektiv munosabati bo‘lishi mumkin.

Shu o‘rinda “obyektiv” va “subyektiv” ma‘nosiga to‘xtalaylik. Obyektiv so‘zi falsafada ongdan tashqarida bo‘lgan va onga bevosita bog‘liq bo‘lmagan<sup>38</sup> degan ma‘noda qo‘llanadi. Ikkinchi ma‘nosi: yanglish yoki subyektiv fikrdan holi bo‘lgan, xolis, xolisona, betarafona<sup>39</sup> demakdir.

Ya‘ni obyektiv belgi bir kishi yoki bir nechta kishi uchun emas balki barcha uchun bir xil bo‘lgan haqiqat bo‘lishi lozim.

Subyektiv – bir shaxsning, subyektning o‘zigagina xos, o‘zigagina tegishli; shaxsiy.

Ikkinchi ma‘nosi – bir kishining shaxsiy fikriga, qarashlariga asoslangan, bir taraflama<sup>40</sup>.

<sup>37</sup> Abdullayev A. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida ma‘no kuchaytirishning fonetik va morfologik usullari. Filol.fan.nom. ...diss. T.: 1970, -B. 3-4

<sup>38</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomlik, 3-tom. –B. 77

<sup>39</sup> O‘sha asar. –B. 77

<sup>40</sup> O‘sha asar. –B 77



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Ko'rinib turganidek "O'zbek tilining izohli lug'at"ida bu ikki so'zning ma'nosi yuqoridagicha izohlangan. Biz qo'llayotgan "obyektiv belgi" va "subyektiv belgi" tushunchalari ham aynan shu ma'nolar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, biz buni sifat so'z turkumi doirasida ko'rib chiqamiz.

Mustaqil so'zlardan bo'lgan sifat predmetning belgisini bildirish uchun xizmat qiladi. Sifatlar anglatgan belgi predmetning rangini, tusini, sifat xususiyati, predmetning shaklini, hajmini, predmet va shaxsning holatini, xarakterini shuningdek predmetning ta'mini, mazasini, payt, vaqt, o'ringa munosabatini va boshqa ma'nolarni bildiradi. Sifatlar mustaqil ravishda qabul qilinadigan belgini bildirmaydi, balki, borliqdagi u yoki bu predmet va hodisalarga tegishli bo'lgan belgini anglatadi<sup>41</sup>.

Sifat ifodalagan belgi obyektiv ham subyektiv ham bo'lishi mumkin. Obyektiv belgi yuqorida aytganimizdek har qanday subyektivlikdan holi, obyektiv olamda, real voqelikda mavjud bo'lgan belgini qanday bo'lsa shundayligicha ifodalashi lozim. Ana shundagina uni obyektiv belgi deyishimiz mumkin.

Shunday ekan tilimizda "obyektiv belgi ifodalovchi sifatlar mavjudmi?" degan savol tug'iladi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, obyektivlik barcha sifat leksemalarida ma'lum darajada mavjud bo'ladi, lekin tilda subyektivlikdan holi, faqat obyektiv belgi ifodalovchi sifatlar ham mavjudmi?

M. Mamadaliyevaning "O'zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti" nomli filologiya fanlari nomzodligi uchun yozilgan dissertatsiyasida:

"Har qanday sifat leksemada obyektiv reallikdagi belgi semasidan tashqari subyektiv modal munosabatlarni ifoda etuvchi semalari ham mavjud bo'lib, ular turli ijtimoiy hayot tajribalari, milliy urf-odatlar, tabiiy sharoit, geografik muhit hamda sotsial qonuniyatlar asosida muayyan nutqiy matnlarda yuzaga chiqadi<sup>42</sup>," degan fikr berilgan. Bu fikrdan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, tilda faqat obyektiv belgi ifodalovchi sifat mavjud emas. To'g'ri sifatning ko'pchiligi subyektiv baho semasiga ega, lekin obyektiv belgi ifodalovchi sifatlar ham yo'q emas. Masalan: **kimyoviy** – kimyoga oid, kimyo hodisalari bilan bog'liq (*suvning kimyoviy tarkibi*), **kuzgi** – kuzga xos, kuzda bo'ladigan (*kuzgi yomg'ir*), **oval** – cho'ziq dumaloq; oval shaklli, **osma** – osib qo'yiladigan, osib qo'yish uchun mo'ljallanib yasalgan; osib qo'yilgan (*osma chiroq*), **jildli** – jild bilan qoplangan, jild kiydirilgan, jildga solingan, **yo'l-yo'l** – uzun-uzun, ba'zan rang-barang yo'llari bo'lgan, uzun-uzun yo'lli (*yo'l-yo'l chit*) va hokazo. Bu misollarning barchasi sifat so'z turkumiga xos bo'lib, narsa-hodisalarga tegishli bo'lgan qandaydir belgilarni ifodalayapti. Ammo ularning birortasida ham subyektiv baho ifodalovchi sema mavjud emas. Misol uchun **jildli** leksemasini olaylik, agar "*jildli daftar*" deydigan bo'lsak, unda hech qanday subyektivlik mavjud emas. Chunki qachon daftarga jild kiydirilgan bo'lsa, u jildli aks holda jildsiz deb aytiladi. Bu

<sup>41</sup>U. Tursunov, J. Muxtorov. Hozirgi zamon o'zbek tili. Morfologiya. Samarqand, 1960. –B. 55.

<sup>42</sup>M. Mamadaliyeva O'zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti. Fil.fan.nomz. ...diss. Namangan, 1997. – B. 110.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



hamma uchun haqiqat, unda hech qanday subyektiv baho mavjud emas. Yoki **siniq** leksemasini olaylik: **siniq** – *singan, parchalangan, biror yeri uchgan yoki darz ketgan, yorilgan*. Masalan, *siniq piyola* birikmasi. Qachonki piyolaning biror yeri uchgan, singan, darz ketgan bo'lsagina, u **siniq** piyola deyiladi. Ya'ni bu obyektiv belgi. **Siniq** so'zi boshqa sinishi mumkin bo'lgan predmetlar bilan qo'llanganda ham xuddi shunday, lekin **siniq** so'zining ko'chma ma'nosi bundan mustasno.

Bunday so'zlar qatorini yana davom ettirishimiz mumkin. Demak tilimizda obyektiv belgi ifodalovchi, subyektiv baho semasidan holi sifatlar yo'q deya olmaymiz.

Endi bevosita subyektiv belgi ifodalovchi sifatlarga to'xtaladigan bo'lsak, albatta, subyektiv baho va konnotativ ma'no tushunchalariga duch kelishimiz tabiiy. Bu ikki tushunchani aynan bir hodisa deb baholovchi ishlar ham yo'q emas. Ular o'zaro bir-biriga yaqin, biroq bu ikki tushunchani aynan bir narsa deyish mushkul.

Subyektiv baho ifodalovchi sifatlar subyektivning (shaxsning) u yoki bu predmet xususiyati haqidagi bahosini ifodalaydi. Subyektiv tomonidan beriladigan baho uning dunyoqarashi, saviyasi, bilimi bilan ham bog'liqdir.<sup>43</sup> Subyektiv munosabat esa konnotatsiyani yuzaga keltiradi.<sup>44</sup> Konnotativ ma'no baholash jarayonida yuzaga keladi. Shu sababli unda doimo obyektiv va subyektiv munosabati mavjud bo'ladi. Ular o'zaro bir-biriga mavjud bo'lib, asosiy baholash vazifasini subyektiv bajaradi. Obyektivdagi belgilarning yoki xususiyatlarning bo'rttirilishi yoki kamaytirilishi subyektivga bog'liq bo'ladi. Birinchi planda doimo subyektiv munosabat hamda nutqiy vaziyat turadi.<sup>45</sup>

Konnotativ ma'no uchun muayyan nutqiy vaziyat, kontekst talab etiladi, sifatlardagi subyektiv belgi(baho) esa nutqdan tashqarida ham mavjud bo'ladi. Demak, subyektiv belgi ifodalovchi sifatlar qatoriga faqat subyektiv belgi ifodalovchi, nutqdan tashqarida ham subyektiv baho semasiga ega sifatlarni kiritishimiz mumkin. Masalan, subyektiv belgi ifodalovchi sifatlardan **chiroyli, go'zal, ko'rkam, suluv, so'lim** sinonimik qatorini olaylik. Bu sifat leksemalarning barchasida subyektiv baho semasi kontekstdan tashqarida ham mavjud. Ammo ularda kontekstdan tashqari holatda konnotativ ma'no mavjud deya olmaymiz. Chunki konnotativ ma'no so'zlarning nutq jarayonida turli munosabatlar qurshovida olgan ekspressiv bo'yog'i asosida belgilanuvchi ma'no hisoblanadi.<sup>46</sup>

Demak, subyektiv belgi ifodalovchi sifatlarning subyektiv baho semasi kontekstdan tashqarida ham mavjud bo'ladi, muayyan nutqiy vaziyat yoki kontekstda ular konnotativ ma'no ham ifodalay oladi. Ammo bu ikki tushuncha aynan bir hodisani ifodalamaydi.

<sup>43</sup> G'iyosov S. O'zbek tilida subyektiv baho sifatlarning semik tahlili. // O'zbek tili va adabiyoti. 1986. –N 2. –B. 28.

<sup>44</sup> A. Abdullayev Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida ma'no kuchaytirishning fonetik va morfologik usullari. Filol.fan.nomz. ...diss. –Toshkent, 1970. –B 163.

<sup>45</sup> M. Mamadaliyeva O'zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti. Filol.fan.nomz. ...diss. Namangan, 1997. –B 108.

<sup>46</sup> Mamarajabova Z. O'zbek tilida sifatlarning konnotativ ma'nolari. Filol.fan.nomz. ...diss. T.: 2004, –B 12.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'zbek tili sifat leksemalari tarkibida obyektiv belgi bildiruvchi sifatlar ham subyektiv belgi ifodalovchi sifatlar ham mavjud va ularning obyektiv yoki subyektiv belgi ifodalashi kontekstdan tashqari holatda ham bilinib turadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida ma'no kuchaytirishning fonetik va morfologik usullari. Filol.fan.nom. ...diss. T.: 1970, -B. 3-4
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomlik, 3-tom
3. U. Tursunov, J. Muxtorov. Hozirgi zamon o'zbek tili. Morfologiya. Samarqand, 1960. –B. 55.
4. M.Mamadaliyeva O'zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti. Fil.fan.nomz. ...diss. Namangan, 1997. –B. 110.
5. G'iyosov S. O'zbek tilida subyektiv baho sifatlarining semik tahlili. // O'zbek tili va adabiyoti. 1986. –N 2. –B. 28.
6. A.Abdullayev Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida ma'no kuchaytirishning fonetik va morfologik usullari. Filol.fan.nomz. ...diss. –Toshkent,1970. –B 163.
7. M. Mamadaliyeva O'zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti. Filol.fan.nomz. ...diss. Namangan, 1997. –B 108.
8. Mamarajabova Z. O'zbek tilida sifatlarning konnotativ ma'nolari. Filol.fan.nomz. ...diss. T.: 2004, -B 12.

